

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
402 sahifa, iyun, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- | | |
|--|--|
| <p>05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi</p> <p>05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari</p> <p>05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash</p> <p>05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari</p> <p>05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti</p> <p>05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi</p> <p>05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari</p> <p>05.01.07 – Matematik modellashtirish</p> <p>05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt</p> <p>05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik</p> <p>05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari</p> <p>05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti</p> <p>05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash</p> <p>05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi</p> <p>05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari</p> <p>05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari</p> <p>05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi</p> | <p>05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish</p> <p>05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar</p> <p>05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari</p> <p>10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik</p> <p>10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti</p> <p>08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi</p> <p>08.00.02 – Makroiqtisodiyot</p> <p>08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti</p> <p>08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti</p> <p>08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti</p> <p>08.00.06 – Ekonometrika va statistika</p> <p>08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit</p> <p>08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit</p> <p>08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti</p> <p>08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti</p> <p>08.00.11 – Marketing</p> <p>08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot</p> <p>08.00.13 – Menejment</p> <p>08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari</p> <p>08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti</p> <p>08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya</p> <p>08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati</p> |
|--|--|

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Ways to Strengthen the Economy of Karakalpakstan	12
Isakov Janabay Yakypbayevich	
Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xavf-xatarlarini iqtisodiy baholash.....	18
Raxmatova M.G., Saidjonova Z.B	
Strategy For Attracting Investments By Expanding the Participation of Joint-Stock Companies in the Securities Market	23
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna, Kutlymurat Zhalgasovich Aytmuratov, Raushan Nurlybay qizi Umirzakova	
O'zbekistonda eksportni sug'urtalash mexanizmlari: mavjud holat va takomillashtirish yo'llari	29
D.E.Qarshiev	
Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston	35
Islomova Dilrabo Salomovna	
Oliy ta'lim muassasalarida xodimlarning mehnat samaradorligini oshirishda rahbarlarning roli	40
Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li, Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'gli, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Обзор по теме Современные системы управлением возбуждение синхронных машин и перспективы их развития	47
Алиев Абдор Мураткулович	
The Mechanism for Applying Tax Benefits and Preferences in Tax Administration	52
Dilorom Mutalova	
Innovatsiyalarning ahamiyati va ularning iqtisodiy samaradorligining o'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashdagi roli	57
Raximov Baxromjon Ibroximovich, Solohiddinov Nuriddin Sirojiddin o'g'li	
Bino va inshootlarni zilzilabardoshligiga oid nazariyalar.....	62
Jalilov Ahmadbek Ikromjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini konseptual asoslari va shartlari asoslari xususida	66
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich	
The Analysis of the Psychophysiological Condition of Children With Mental Disorders and the Creation of Comfort Through Designed Clothing	73
Asatilaeva Lola Muratjon qizi, Muminova Umida Tokhtasinovna	
Analysis Types of Waterproof Fabrics and Their Physical and Mechanical Properties	80
Pulatova Laziza Bakhodirovna, Kasimova Aziza Bakhodirovna	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	85
Umarmulov Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Suv resurslarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalar:qishloq xo'jaligi uchun iims modelini ishlab chiqish.....	89
Fazilat Egamberganova Shuhratovna	
Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish	93
Ernaqulov Sunnatillo Nurali o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalarini boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari	98
Yembergenova Aynur Aydosbaevna	
Mahalliy budjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlar va ularning axborot imkoniyatlarini oshirish masalalari	104
Abdulaziz Norqochqorov Ziyadullayevich	
Sirdaryo viloyatida investitsion faollikni oshirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi	110
Mamatqulova Muxlisa Komiljon qizi	



Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	115
Umarkulov, Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning gnoseologik asoslari xususida	118
Abdusherozov Abdullo Baxtiyrovich	
Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy jihatlari	125
Yaqubova Nodira Olim qizi	
O'zbekistonda to'qimachilik eko-mahsulotlari bozorining rivojlanish imkoniyatlari	130
Nosirova Charos	
Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishda zamonaviy sifat menejmenti tizimining o'rni	135
Asadullina Nailya Ramilevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
Axoli daromadlarining turmush farovonligiga ta'siri	142
Berdibekov A.	
Raqamli iqtisodiyot sharoitda ta'lim xizmati sifatini oshirishni ekonometrik modellashtirish usullari	148
Axmedova Barno Abdiyevna	
Jahon mamlakatlarida chakana savdoni boshqarishning o'ziga xosligi va unda strategik menejment tizimi	151
Yaqubov Azizbek G'anibekovich	
Kichik tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	156
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Geologiya korxonalarining investitsion samaradorligini oshirish yo'llari	163
O'tamurodova Surayyo SHokirjon qizi	
Temir yo'l transportini rivojlantirishdagi xorij tajribasi	169
Nasrullayev Nurbek Baxtiyrovich	
Hududlar iqtisodiyoti agrar sektori investitsion faolligining ko'rsatkichlar tizimi va ularning xususiyatlari	174
S.J. Yangiboev	
Hududlarning soliq salohiyatini oshirishdagi mavjud muammolar va ularning yechimlari	181
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
Uzoq muddatli aktivlar auditining tashkiliy va uslubiy jihatlarini takomillashtirish	188
Bakayev Xurshid Maxmudovich	
Применение искусственного интеллекта в оценке кредитных рисков.....	195
Маликов Шохрух Шокирович, Неъматова Фарангиз Санжар кизи, Омонов Санжар Ғанишер ўғли, Гулмуродова Динора Акрам кизи, Камалов Шухрат Камалович	
Tashqi bozorlarda tovarlarning raqobatbardoshligini oshirishda zamonaviy marketingdan foydalanish ...	209
Meliqulov Abduhalil Norinovich	
Tijorat banklari investitsiya faoliyatida yuzaga keluvchi risklar	215
Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li	
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda xalqaro savdo shartnomalarining roli.....	219
Xodjayev Jamshid Abduxakimovich	
Servislashgan jamiyatda avtoservis xizmatlarining o'rni va ahamiyatini yoritishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar	223
Shaymardanova Dildora Xaydarjon qizi	
Davlat budjetining ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi o'rni	230
Qo'ziyev Shodiyor Qilichboy o'g'li	
Madaniy festivallar-turizmni rivojlantirish vositasi sifatida	234
Xushnazarova Maxzuna Gulamdjanovna	
Xizmatlar sohasida innovatsion strategiyani shakllantirishning o'ziga xos jihatlari	239
Jamshid Abduxaliqovich Xolboyev	



Innovatsion tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotdagi o'рни	244
Fayziyev Shavkat Shaxobidinovich	
Managing Tourism in Fragile Ecosystems: A Case Study Approach	251
Dilmurod Nasimov, Shahrizoda Sirojiddinova	
Development of the Digital Financial Assets Market to Enhance Investment Activity	258
Shamshinur Yakubova	
Turizm sohasining investitsion jozibadorligi va uni oshirish yo'llari	263
Ayubov Ilyos Iloxomovich	
Qimmatli qog'ozlar bozorida risklarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish	268
Otaxonov Saidaxror Ilhomjon o'g'li	
O'zbekiston hududlarining barqaror rivojlanishi: omillar va ko'rsatkichlar tahlili	274
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
Iqtisodchi va bugalterlarning jamiyatdagi o' rni va ahamiyati	282
Sohibova A'loxon Zafarjon qizi	
Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarni raqamli kompetensiyasini baholashning metodologik asoslari ..	286
Maxkamova Zuxra Tursunpulotovna	
Sug'urta faoliyati hisobining normativ-huquqiy asoslari	292
Kodirkulov Oybek Turdiboyevich	
Raqamli iqtisodiyot: qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish va joylashtirish	301
Bazarov Nazirjon Sobirovich, Mo'minov Baxodir Orifjonovich	
Sport maktablaridagi yoqari sinf o'quvchilarining chidamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati	306
Qon'irbayev Dastan	
Международный опыт сельскохозяйственного налогообложения и возможности его применения в узбекистане	311
Салимов Шерзод Бахтиёрвич	
Cleaning of Salt Water Using Reverse Osmosis	316
Kungiratbay Sharipov, Nurmanov Ma'ruf	
Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy instrumentlar auditi uchun tavakkalchilikka asoslangan baholash mezonlarini takomillashtirish	326
Nuraliyev Behzod Baxtiyor o'g'li	
Turizm investitsion salohiyatiga ta'sir kuchlari va ularga yechim	331
Ayubov Ilyos Iloxomovich	
Korxonalarda nomoddiy aktivlarni hisobga olishda shaffoflikni ta'minlash va xorij tajribalaridan foydalanish istiqbollari	335
Rizakulov Abdurauf Abdimutalibovich	
Strengthening the Tourism Industry Through Education and Training: A Review of Global and Regional Strategies	342
G'aforova Zarina Otabek qizi	
Raqamli iqtisodiyotda telekommunikatsiya infratuzilmasining rivojlanish omillari va iqtisodiy samaradorligi tahlili (o'zbekiston misolida)	348
Xazratov Abror Panjiyevich	
Smart tourism konsepsiyasining o'zbekistonda joriy etilishi: infratuzilma, xizmatlar va raqamli innovatsiyalar tahlili	352
Abriev Zoirjon	
The Development of Tourism Management as a Significant Part of Economy in Uzbekistan	358
To'xtarova Feruzahon Yuldashevna	
Biologik aktivlarni iqtisodiy tahlil qilish turlari: metodologiyasi va amaliy qo'llanilishi	362
Ziyayev Dilshodjon Salimjonovich	



Понятие и сущность денежного потока в системе финансового управления	366
Машарипова Шахло Адамбаевна	
Buxoro viloyat hududining urbanizatsiya konsepsiyasini ishlab chiqish	372
Akramov Doniyor Rustam o'g'li, Usmonov Muradxan Saidmaxmudovich	
Интегрированный механизм оценки финансового состояния предприятия	376
Tajibayeva Kizlargul Ajiniyazovna	
Ecosystem Services Under Ecological Stress: the Case of the Former Aral Sea	383
Umidjan R. Nazarkulov	
O'zbekistonda iqtisodiy ta'lim muammolarini virtual platformalar orqali bartaraf etish yo'llari	388
Jalolova Madina Shopo'lat qizi	
Temir yo'l transporti korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirish ("toshkent mexanika zavodi" aj misolida)	393
Xudoyorova Mehrangiz	



TEMIR YO‘L TRANSPORTI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH (“TOSHKENT MEXANIKA ZAVODI” AJ MISOLIDA)

Xudoyorova Mehrangiz

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Iqtisodiyot va menejment”
kafedrası assistenti, O‘zbekiston

<https://orcid.org/0009-0000-8921-1880>

Annotatsiya: Maqolada temir yo‘l transporti korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatining shakllanishi va rivojlanishiga ta‘sir etuvchi iqtisodiy va boshqaruv omillarining tizimli tahlili keltirildi. Tadqiqotda infratuzilma holati, boshqaruv tizimi samaradorligi, mehnat resurslari malakasi, innovatsion texnologiyalar joriy etilishi va investitsiya faolligi asosiy omillar sifatida o‘rganildi. Empirik tahlillar O‘zbekiston temir yo‘l transporti tizimi misolida olib borilib, ishlab chiqarish salohiyatini oshirish uchun infratuzilmani modernizatsiya qilish, boshqaruv tizimini raqamlashtirish, kadrlar salohiyatini rivojlantirish va investitsiya siyosatini kuchaytirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: temir yo‘l transporti, ishlab chiqarish salohiyati, ishlab chiqarish quvvati, boshqaruv tizimi, infratuzilma samaradorligi, mehnat resurslari, modernizatsiya.

Abstract: The article presents a systematic analysis of the economic and managerial factors influencing the formation and development of the production potential of railway transport enterprises. The study focuses on key factors such as the state of infrastructure, the efficiency of management systems, the qualifications of human resources, the implementation of innovative technologies, and investment activity. An empirical analysis was conducted based on the example of Uzbekistan’s railway system, resulting in practical recommendations for infrastructure modernization, management digitalization, human resource development, and strengthening of investment policy to enhance the production potential of the industry.

Keywords: railway transport, production potential, production capacity, management system, infrastructure efficiency, human resources, modernization.

Аннотация: В статье представляется системный анализ экономических и управленческих факторов, влияющих на формирование и развитие производственного потенциала предприятий железнодорожного транспорта. В исследовании основное внимание уделяется состоянию инфраструктуры, эффективности системы управления, квалификации трудовых ресурсов, внедрению инновационных технологий и инвестиционной активности как ключевым факторам. Эмпирический анализ проведён на примере железнодорожной системы Узбекистана, по итогам которого разработаны практические предложения по модернизации инфраструктуры, цифровизации управления, развитию кадрового потенциала и усилению инвестиционной политики для повышения производственного потенциала отрасли.

Ключевые слова: железнодорожный транспорт, производственный потенциал, производственные мощности, система управления, эффективность инфраструктуры, трудовые ресурсы, модернизация.

KIRISH

Temir yo‘l transporti har qanday mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va hududlararo integratsiyasi uchun muhim strategik tarmoqlardan biridir. Uning ishonchli va barqaror faoliyati sanoat ishlab chiqarishi, eksport-import operatsiyalari, logistika tizimi va aholining harakatlanish imkoniyatlari bilan bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, yuk tashish bo‘yicha arzon, xavfsiz va katta hajmda tashish imkoniyatiga ega bo‘lgan temir yo‘l transporti boshqa transport turlariga nisbatan muhim afzalliklarga ega. Shu bois, temir yo‘l tizimining samaradorligi, modernizatsiya darajasi va ishlab chiqarish quvvati mamlakat transport siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Xususan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l transporti

sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori ham qabul qilingan.¹ Mamlakatimizda temir yo'l transporti tizimiga xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda ishlab chiqarish salohiyatini oshirish hamda uni yanada takomillashtirish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, temir yo'l transporti tizimi samarali ishlashi uchun uning texnik infratuzilmasi va ekspluatatsiya tizimidan tashqari, ehtiyot qismlar, mexanizmlar, metall konstruksiyalar va ta'mirlash-ekspluatatsiya elementlarini ishlab chiqaruvchi korxonalarining ishlab chiqarish salohiyati alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, harakatlanuvchi tarkib va temir yo'l infratuzilmasining uzluksiz ishlashi bevosita ehtiyot qismlar bilan ta'minot tizimiga bog'liqdir.

O'zbekistonda temir yo'l infratuzilmasi sohasida xizmat ko'rsatuvchi sanoat korxonalari ichida Toshkent Mexanika Zavodi yetakchi o'rinda turadi. Mazkur korxonada temir yo'l vagonlari va lokomotivlari uchun ehtiyot qismlar, tayanch konstruksiyalar, metall detallar va boshqa muhim ekspluatatsion buyumlar ishlab chiqaradi. Zavodning ishlab chiqarish salohiyati nafaqat mavjud ishlab chiqarish quvvatlari, balki mehnat resurslari, boshqaruv samaradorligi, investitsiya oqimi va texnologik modernizatsiya darajasi orqali belgilanadi.

Bugungi kunda sanoat korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatini chuqur tahlil qilish, ularning ichki resurslardan qay darajada samarali foydalanganini baholash, ishlab chiqarish jarayonlariga raqamli texnologiyalarni joriy etish va strategik modernizatsiya yo'nalishlarini ishlab chiqarish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Toshkent Mexanika Zavodi misolida bunday tahlilni amalga oshirish, nafaqat mazkur korxonaning balki temir yo'l transporti sohasidagi boshqa ishlab chiqaruvchilarning rivojlanish modeli uchun ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ushbu maqolada Toshkent Mexanika Zavodining ishlab chiqarish salohiyati tizimli tahlil qilinadi, u shakllanuvchi omillar, jumladan, infratuzilma holati, boshqaruv tizimi, mehnat resurslari, investitsiya va innovatsiyalarni qamrab olgan holda o'rganiladi hamda tadqiqot natijalari asosida amaliy xulosalar ishlab chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Temir yo'l transporti korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini yanada tadqiq qilish bo'yicha xorij olimlaridan: V.Ovchynnikova², N.Stoyanova³ kabilarning asar va ilmiy maqolalarida keltirilgan. Mamlakatimiz olimlaridan S.Sadullaev, X.Mansurov, A.Xaitboyevlarning⁴, Sh.Xolbutayeva⁵ maqolalarida ham bu mavzu atroflicha yoritilgan. Shuningdek, Ishlab chiqarish salohiyatining shakllanishi va rivojlanishi har bir korxonaning faoliyat sohasi, texnologik darajasi va ichki tashkiliy tuzilmasiga bog'liq holda o'ziga xos tarzda kechadi. Shu bois, temir yo'l transporti korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini har tomonlama tahlil qilish uchun, avvalo, "ishlab chiqarish salohiyati" tushunchasining nazariy asoslarini ko'rib chiqish muhimdir. Ilmiy adabiyotlarda bu tushunchaning turli talqinlari mavjud bo'lib, ular orasida yagona yondashuv shakllanmagan.

O.I. Anchishkin ishlab chiqarish salohiyatini ishlab chiqarish jarayonida resurslarning ishlab chiqarish omillariga aylanishi orqali shakllanuvchi majmua sifatida ko'radi.⁶ T.B. Berdnikova esa uni mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha korxonaning imkoniyatlarini ifodalovchi iqtisodiy toifa sifatida izohlaydi⁷. D.V. Galushko bu salohiyatni korxonaning moddiy va mehnat resurslarini maqsadli tarzda tadbirkorlik faoliyatida qo'llash imkoniyati deb tushuntiradi.⁸

Boshqa tomondan, I.Z. Doljanskiy ishlab chiqarish salohiyatini mavjud ishlab chiqarish vositalari, mehnat taqsimoti va optimal ishlab chiqarish sharoitlarida ishlovchi xodimlar tomonidan bajarilishi mumkin bo'lgan ish hajmi bilan o'lchanadigan ko'rsatkich sifatida belgilaydi.⁹ O.K. Dobikina esa ishlab chiqarish salohiyatini moddiy boyliklar yaratishdagi tizimning ishlab chiqarish resurslariga tayanib ishlash qobiliyati sifatida talqin etadi.¹⁰

Yana bir muhim yondashuv S.O. Ishchuk tomonidan ilgari surilgan bo'lib, u ishlab chiqarish salohiyatini murakkab, dinamik va tashkil etilgan tizim sifatida baholaydi. Bu tizim o'zaro bog'langan elementlardan iborat bo'lib, ular bozor talablariga muvofiq miqdor va sifatidagi mahsulot ishlab chiqarish jarayonida muhim funksiyalarni bajaradi.¹¹ M.K. Starovoytov va P.A. Fomin bu tushunchani resurslardan eng yuqori darajada foydala-

1 <https://lex.uz/acts/-6631602>

2 Ovchynnikova, Viktoria, et al. "Ensuring development of the production potential in terms of implementation of strategic initiatives of the railway transport." (2018).

3 Стоянова, Н. В. «Основные этапы стратегического развития железнодорожного транспорта.» *Транспорт: наука, образование, производство («Транспорт-2022»)*. 2022.

4 Садуллаев, С. К., Х. О. Мансуров, and А. Г. Хайтбойев. «Развитие железнодорожного транспорта в Узбекистане.» (2022).

5 Sh.Xolbutayeva, Temir yo'l transportini strategik rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari tahlili *Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali* 2024, 4(10),412-422.

6 Anchishkin A.I. (1983). Tasks of national economy planning. Collection of articles of Moscow State University, p. 72.

7 Berdnikova T.B. (2010). Analysis and diagnostics of the financial and economic activity of the company. Moscow: Infra-M, 224 p.

8 Galushko D.V. (2007). Management of the competitive potential of a railway machine building company on the basis of implementation of the principles of offensive strategy: Ph.D. thesis in Economics; Specialty: 08.00.05. Bryansk, 142 p.

9 Dolzhanskiy I.Z. (2006). The management of the company's potential: tutorial. Center for Teaching Literature, 362 p.

10 Dobykina O.K. (2007). Potential of the company: establishing and assessing: tutorial. Kyiv: Center for Teaching Literature, 202 p.

11 Ishchuk I. (2005). Conceptual fundamentals of the formation and development of the production potential of industrial entities. *Regional Economics*, No. 3, pp. 48–56.



nish orqali maksimal ishlab chiqarish natijasiga erishish uchun iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi aloqalar tizimi sifatida talqin qiladi.¹²

L.V. Zapashchuk esa ishlab chiqarish salohiyatini strategik moslashuvchanlikni ta'minlashga qaratilgan, belgilangan hajm va sifatda mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatiga ega maksimal ishlab chiqarish quvvati sifatida ko'rib chiqadi.¹³ I.V. Solomnikov temir yo'l korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini mavjud resurslardan optimal foydalanish orqali aholining transport xizmatlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish salohiyati sifatida belgilaydi.¹⁴

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik olimlar ishlab chiqarish salohiyatining mohiyatini resursga asoslangan yondashuv orqali tushuntiradilar. Ba'zilar faqat asosiy ishlab chiqarish fondlarini salohiyat tarkibiga kiritadi, boshqalari esa mehnat, tabiiy va intellektual resurslarni ham bu tarkibga qo'shadi. O. Mikhaylenko va N. Skopenko esa bu struktura tarkibini yanada kengaytirib, uni resurs va ilmiy-texnik salohiyatdan iborat integ-rallashgan tizim sifatida ko'rsatadi. Ular ishlab chiqarish salohiyatini asosiy fondlar, mehnat, energiya, axborot va boshqa ko'rinishlardagi resurslar yig'indisi deb baholaydi.¹⁵

Shuningdek, O.S. Xrynyuk va T.I. Grymashevich ishlab chiqarish salohiyatini baholashda doimiy va aylanma kapital resurslari, mehnat, yer, investitsiya va innovatsion salohiyat kabi tarkibiy elementlarni hisobga olishni tavsiya etadi. Temir yo'l transporti sohasida esa aynan moddiy-texnik salohiyat (asosiy fondlar, aylanma mablag'lar, nomoddiy aktivlar) va ishlab chiqarish xodimlari salohiyati muhim ahamiyat kasb etadi.¹⁶

Yuqorida keltirilgan ilmiy yondashuvlar asosida xulosa qilish mumkinki, ishlab chiqarish salohiyatining asosiy tarkibi bu asosiy fondlar, mehnat resurslari va aylanma mablag'lardir. Bu yondashuv ayniqsa barqaror va boshqariladigan iqtisodiy muhitda o'zini to'laqonli namoyon etadi. Biroq zamonaviy iqtisodiyotda ushbu uchlikka texnologik, axborot va innovatsion komponentlar ham qo'shilmoqda. Shuning uchun temir yo'l transporti korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatining roli hamda uni baholashda resurslar, jarayonlar va rivojlanish zaxiralari o'z ichiga oluvchi kompleks yondashuv zarur hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy asarlar mavzuning ilmiy tadqiq etilganini ifodalasada, temir yo'l transporti korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini roli atroficha yoritilmagan hamda temir yo'l transportiga xizmat ko'rsatuvchi bir qator korxonalarda ishlab chiqarish salohiyatini yanada takomillashtirish kabi ayrim masalalar yetarlicha o'rganilmagan va tadqiq etilmagan.

METODLAR

Ushbu tadqiqotda miqdoriy yondashuv asosida tadqiqot obyekti hisoblangan "Toshkent Mexanika Zavodi" AJ ning ishlab chiqarish quvvati dinamikasi tahlil qilindi. Ma'lumotlar manbai sifatida Stat.uz O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi, "O'zbekiston Temir Yo'llari" rasmiy statistik bazalari hamda "Toshkent Mexanika Zavodi" AJ ochiq ma'lumotlaridan foydalanildi. Asosiy ko'rsatkichlar bo'lib, zavod ishlab chiqarish quvvati, ishlab chiqarilgan mahsulotlar soni hamda ularning turlari, ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi (indikator sifatida) lari hisoblanadi. Tahlil metodi sifatida deskriptiv statistika (o'sish sur'atlari), dinamik qiyosiy tahlil (2019-2023 -yillar oralig'ida), grafik tahlil olindi. Tahlilda asosan ikkilamchi ma'lumotlar ishlatildi, ya'ni ochiq statistik bazalar va nashr qilingan xalqaro hisobotlar asosida tadqiqot olib borildi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari Toshkent Mexanika Zavodi misolida temir yo'l transporti korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatini kompleks tahlil qilish orqali shakllandi. Ushbu salohiyatning asosiy ko'rsatkichlari – ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasi, mahsulot assortimentining kengligi, mehnat resurslari salohiyati, texnologik modernizatsiya va investitsion faollik – asosiy tahlil obyektlari sifatida tanlandi.

Toshkent Mexanika Zavodi temir yo'l transporti infratuzilmasi va harakat tarkibi uchun zarur ehtiyot qismlar va metall konstruksiyalar ishlab chiqaruvchi yirik sanoat korxonasi hisoblanadi. Korxonaning moliyaviy hisobotlariga tayanib shuni ayta olamizki, yil sayin zavod o'z ishlab chiqarish quvvatini oshirishga erishib, mavjud salohiyatdan samarali foydalanishga intilmoqda. Buni quyidagi


12 Starovoytov M.K. & Fomin P.A. (2002). Practical tools for organizing management of an industrial entity. Moscow: Higher School, 294 p.

13 Zapashchuk L.V. (2010). Methodical approaches to assessment of the production potential of an industrial entity. Bulletin of Zhytomyr State Power Engineering University. Series "Economic Sciences", No. 3 (53), Part 3, pp. 60–63.

14 Solomnikov I.V. (2016). Technical and technological development of the railway companies in terms of modern economics. Prichornomski Economic Studies, No. 11, pp. 172–176.

15 Mikhaylenko O. & Skopenko N. (2011). Theoretical aspects of formation of the production potential of agricultural complex. Relevant Problems of Economics, No. 3 (117), pp. 74–79.

16 Khrynyuk O.S. & Grimashevich T.I. (2017). Theoretical and methodical aspects of assessment of the production potential of the company. Economy and Society, No. 13. Retrieved from: http://www.economyandsociety.in.ua/journal/13_ukr/132.pdf



1-rasm: Zavodning ishlab chiqarish quvvati va undan foydalanish darajasi¹⁷

2019-yilda TMZ tomonidan qayta ishlangan metall hajmi 8500 tonnani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 12000 tonnaga yetdi. Bu oraliqda, har yili qayta ishlash hajmi o'rtacha 800-1000 tonnaga ortib borgan. Bu esa ishlab chiqarish bazasining kengayganini va korxonadagi mavjud texnologik quvvatlarning izchil rivojlantirilganini ko'rsatadi. Shuningdek, ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasi 2019-yilda 70 foiz bo'lgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 100 foizga yetgan. Ya'ni korxonada o'z salohiyatini to'liq ishga solgan va mavjud resurslardan maksimal darajada foydalanishga erishgan. Bu nafaqat ishlab chiqarish samaradorligining oshganini bildiradi, balki korxonada ishlab chiqarishni rejalashtirish, ta'minot va ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish samarali tashkil etilganini ham anglatadi.

Zavod faoliyatining yana bir muhim yo'nalishlaridan biri – ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning turini kengaytirish, ya'ni mahsulot nomenklaturasini diversifikatsiya qilishdir. So'nggi besh yil davomida Toshkent mexanika zavodi moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar soni barqaror o'sgan. Ayniqsa, vagon va lokomotiv ehtiyot qismlari, metall konstruksiyalar va signalizatsiya tizimlariga oid detallar ishlab chiqarish hajmi yildan-yilga son jihatdan o'zgarib borganining solishtirma tahlilini quyidagi 1-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

1-jadval: Mahsulot turlarining son jihatdan o'zgarishi solishtirma tahlili¹⁸

Mahsulot guruhi	2019-yil	2023-yil
Vagon ehtiyot qismlari	15	25
Lokomotiv ehtiyot qismlari	10	18
Metall konstruksiyalar	5	12
Signalizatsiya detallari	2	6
Jami mahsulot turlari	32	61


Shu bilan bir qatorda, zavod mazkur yillar davomida ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasini ham izchil oshirib borganligini ko'rishimiz mumkin. Aksionerlik jamiyatidan olingan iqtisodiy ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 2019-yilda bu ko'rsatkich 70 foizni tashkil etgan bo'lib, korxonada salohiyatining to'liq ishga solin-

17 TMZ AJ ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

18 TMZ AJ ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi



maganligini anglatadi. Quyidagi grafikda ishlab chiqarish samaradorligining o'zgarish dinamikasini ko'rishimiz mumkin.



2-rasm: Ishlab chiqarish samaradorligining o'zgarish dinamikasi¹⁹

2020-2022-yillar oralig'ida esa har yili 7-8 foizlik barqaror o'sish kuzatilgan. Ayniqsa, 2021-yildan boshlab quvvatdan foydalanish darajasi 80 foizdan oshgani, ishlab chiqarish samaradorligi sezilarli darajada o'zgarishini anglatadi. Nihoyat, 2023-yilga kelib korxonada ishlab chiqarish quvvatidan maksimum foydalanishga harakat qilganligini ko'rishimiz mumkin.

Grafikdan ko'rinib turibdiki, quvvatdan to'liq foydalanishni yo'lga qo'yish, ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga, xarajatlarning kamayishiga va foyda marjasining ortishiga olib keladi. Shu bilan birga, bu holat korxonada yangi ishlab chiqarish liniyalarini ishga tushirish yoki mavjud quvvatlarni kengaytirish zaruriyatini yuzaga keltiradi, aks holda talab ortishiga moslashishda muammolar paydo bo'lishi mumkin.

MUHOKAMA

Korxonada faoliyatida qayta ishlash quvvatining izchil o'sib borishi, mavjud ishlab chiqarish infratuzilmasining to'liq ishga solinayotgani bilan bevosita bog'liq. Ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasining barqaror oshib borishi esa bu jarayon rejalashtirilgan boshqaruv siyosati, texnologik yangilanishlar va samarali resurs taqsimoti bilan ta'minlanishi kerakligini anglatadi. Bundan tashqari, mahsulotlar assortimenti bo'yicha ham kengayish zavodning tashqi bozor raqobatiga hamda doimiy talabni o'rganib, ichki hamda tashqi bozorlardagi talabga moslashishga olib keladi. Diversifikatsiya jarayoni korxonaning bir yo'nalishga bog'lanib qolmasligini ta'minlash, ishlab chiqarish barqarorligini saqlashga xizmat qiladi. Bu esa sanoat tarmoqlaridagi o'zgaruvchan talablarni qondirish va raqobatbardoshlikni oshirish uchun muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, ishlab chiqarish samaradorligi ortib doimiy oshirib borish, aksiyadorlik jamiyatining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Bu holat ishlab chiqarish jarayonlarining optimallashtirilishiga, zamonaviy texnologiyalarning joriy qilinishi hamda ishchi kuchining malakali tayyorgarligining yanada oshirilishiga dalolat beradi. Mehnat resurslaridan samarali foydalanish va ichki boshqaruv tizimining takomillashuvi ham ishlab chiqarish quvvatining to'liq ishga solinishiga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, korxonada mavjud salohiyatdan to'liq foydalanmoqda va bu orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga erishish mumkin. Biroq mavjud quvvatlarning maksimal darajada yuklangani kelgusida qo'shimcha ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun yangi infratuzilmalarni rivojlantirish, texnologik zaxiralarni yaratish va resurslarni optimallashtirish zarurligini yuzaga keltiradi.

¹⁹ TMZ AJ ma'l umotlari asosida muallif ishlanmasi

XULOSA

Toshkent Mexanika Zavodining mavjud ishlab chiqarish salohiyati o'z resurslaridan samarali foydalanayotgan barqaror ishlab chiqaruvchi korxonalar sifatida shakllanib kelayotganligini ko'rsatadi. Biroq, salohiyatni yanada oshirish uchun muhim ichki va tashqi omillarni ham rivojlantirishga bo'lgan yondashuvlarning sifat jihatidan takomillashtirilishini taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, quyidagi ilmiy asoslangan tavsiyalar ilgari suriladi:

Birinchi, inson kapitalini rivojlantirish – xodimlarning malakasini oshirish, yosh mutaxassislarini tayyorlash va mehnat unumdorligini rag'batlantirish orqali ishlab chiqarish jarayonlari yanada samarali tashkil etilishi mumkin.

Ikkinchi, texnologik modernizatsiyani davom ettirish avtomatlashtirilgan uskunalari, zamonaviy dasturiy boshqaruv tizimlari va raqamli ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy qilish korxonaning mahsulot sifati va ishlab chiqarish tezligini oshiradi.

Uchinchi, boshqaruv tizimini takomillashtirish ishlab chiqarish jarayonlarida tezkor va strategik qaror qabul qilish, ishlab chiqarish va ta'minot o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash zarur.

To'rtinchi, infratuzilmani rivojlantirish ishlab chiqarish maydonlarini kengaytirish, energetika ta'minotini barqarorlashtirish va logistikani optimallashtirish orqali ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirish mumkin.

Beshinchi, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash ilmiy-tadqiqot va yangi mahsulotlar ishlab chiqish bilan bog'liq faoliyatni kuchaytirish, mahsulot turlarini bozorga mos ravishda yangilab borish korxonaning raqobatbardoshligini oshiradi.

Shu bilan birga, tashqi omillar – xomashyo bazasining barqarorligi, bozor infratuzilmasi va hukumat tomonidan ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlash choralarini ham inobatga olgan holda TMZ o'z ishlab chiqarish salohiyatini yanada kengaytirishga qodir. Bu omillarni tizimli tarzda rivojlantirish orqali korxonalar nafaqat ichki ehtiyojlarni, balki eksport imkoniyatlarini ham kengaytirishi mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2024-yil 16-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 425-sonli qarori
2. Ahadovna, Qudratova Gulsanam. "Markaziy osiyo davlatlari transport tizimidagi asosiy muammolari." Tadqiqotlar 59.1 (2025): 163-165.
3. Shavkatbek, Egamberdiyev, and G'oyibnazarov Og'abek. "Transport tizimlarining iqtisodiy samaradorligi." Лучшие интеллектуальные исследования 37.4 (2025): 224-229.
4. Abduvalieva, Xolbutaeva Shaxnoza. "Temir yo'l transportini strategik rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari tahlili." Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting 4.10 (2024): 412-422.
5. Sh.Xolbutaeva, Temir yo'l transportini strategik rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari tahlili Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali 2024, 4(10),412-422.
6. Ovchinnikova, Viktoria, et al. "Ensuring development of the production potential in terms of implementation of strategic initiatives of the railway transport." (2018).
7. Стоянова, Н. В. "Основные этапы стратегического развития железнодорожного транспорта." Транспорт: наука, образование, производство («Транспорт-2022»).
8. Anchishkin A.I. (1983). Tasks of national economy planning. Collection of articles of Moscow State University, p. 72.
9. Berdnikova T.B. (2010). Analysis and diagnostics of the financial and economic activity of the company. Moscow: Infra-M, 224 p.
10. Galushko D.V. (2007). Management of the competitive potential of a railway machine building company on the basis of implementation of the principles of offensive strategy: Ph.D. thesis in Economics; Specialty: 08.00.05. Bryansk, 142 p.
11. Dolzhanskiy I.Z. (2006). The management of the company's potential: tutorial. Center for Teaching Literature, 362 p.
12. Dobykina O.K. (2007). Potential of the company: establishing and assessing: tutorial. Kyiv: Center for Teaching Literature, 202 p.
13. Ishchuk I. (2005). Conceptual fundamentals of the formation and development of the production potential of industrial entities. Regional Economics, No. 3, pp. 48–56.
14. Starovoytov M.K. & Fomin P.A. (2002). Practical tools for organizing management of an industrial entity. Moscow: Higher School, 294 p.
15. Zapashchuk L.V. (2010). Methodical approaches to assessment of the production potential of an industrial entity. Bulletin of Zhytomyr State Power Engineering University. Series "Economic Sciences", No. 3 (53), Part 3, pp. 60–63.
16. Shatalova T.N. & Enikeeva A.G. (2007). The economic essence of the production potential. Bulletin of the Orenburg State University, pp. 85–91.
17. Dikan V.V. & Kas P.Yu. (2015). Theoretical fundamentals of development of the production potential of domestic machine building companies. Development of methods of management and control in transport, No. 2, pp. 72–85.
18. Solomnikov I.V. (2016). Technical and technological development of the railway companies in terms of modern economics. Prichornomski Economic Studies, No. 11, pp. 172–176.
19. Mikhaylenko O. & Skopenko N. (2011). Theoretical aspects of formation of the production potential of agricultural complex. Relevant Problems of Economics, No. 3 (117), pp. 74–79.



20. Khrynyuk O.S. & Grimashevich T.I. (2017). Theoretical and methodical aspects of assessment of the production potential of the company. *Economy and Society*, No. 13. Retrieved from: http://www.economyandsociety.in.ua/journal/13_ukr/132.pdf
21. <https://stat.uz/uz/> - O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi sayti.
22. <https://railway.uz/uz/> - "O'zbekiston Temir Yo'llari" AJ ochiq ma'lumotlar bazasi
23. <https://special-uz.tnz.uz/> - "Toshkent Mexanika Zavodi" AJ ochiq ma'lumotlar bazasi

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100